

## “GENETIK” ROMANIDA PEYZAJ VA PORTRET

**Toshpoʻlatov Zayniddin**

*Termiz davlat universiteti Magistratura boʻlimi Adabiyotshunoslik (Oʻzbek adabiyoti)  
yoʻnalishi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Genetik” romanidagi peyzaj va portretlar tahlili berilgan. Ushbu asarda uchrovchi tabiat tasvirlari, jumladan, shamol va yomgʻir tasviri qanday berilganligi va inson portretlari Sofiya xola, Ubay aka va uning turmush oʻrtogʻining portretlari misollar yordamida berilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *Genetik, peyzaj, shamol tasviri, yomgʻir tasviri, adabiy portret*

## LANDSCAPE AND PORTRAIT IN THE NOVEL "GENETIC"

**Abstract:** *This article provides an analysis of landscapes and portraits in Isajon Sultan's novel "Genetic". In this work, the images of nature encountered, including the depiction of wind and rain, and the portraits of people, such as aunt Sofia, brother Ubay and her husband, are given with the help of examples.*

**Key words:** *Genetic, landscape, image of wind, image of rain, literary portrait*

## ПЕЙЗАЖ И ПОРТРЕТ В РОМАНЕ "ГЕНЕТИК".

**Аннотация:** *В данной статье проводится анализ пейзажей и портретов в романе Исаджона Султана «Генетика». В этой работе с помощью примеров даны встречающиеся образы природы, в том числе изображение ветра и дождя, и портреты людей, таких как тетя София, брат Ubay и ее муж.*

**Ключевые слова:** *генетика, пейзаж, образ ветра, образ дождя, литературный портрет.*

Peyzaj bu fransuzcha— mamlakat, joy degan maʼnolarni anglatadi. Bu atama ikki oʻrinda ishlatiladi: birinchisi ba tasviriyy sanʼat boʻlsa, ikkinchisi badiiy adabiyotdadir. Rassomlik (rangtasvir, grafika) va haykaltaroshlik (relyef)da tabiatni aks ettiruvchi janr yoki shu janrda yaratilgan alohida asar hisoblansa, badiiy adabiyotda — badiiy soʻz vositasidagi tabiat tasviri, ifodasi hisoblanadi. Peyzaj yozuvchining oʻz asarida tanlagan ifoda usuli va ijodiy uslubi bilan bogʻliq holda turli vazifalarni bajarishi mumkin. Tabiat manzarasi tasviri orqali yozuvchi oʻzining yurtiga, Vataniga, ona tabiatga boʻlgan munosabatini ifodalaydi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri boʻlib, asarning gʻoyaviy-estetik quvvatini oshirish, syujet rivojini tezlatish yoki sekinlatish, qahramonning ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni bajaradi. Bu bilan Peyzaj badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarni yanada toʻlaqonli ifodalashga yordam beradi. Badiiy asarda

peyzajdan 2 xil usulda foydalaniladi: qahramonning ruhiy holatini tabiat tasviri bilan parallel ravishda tasvirlash va qaramaqarshi (kontrast) usulda tasvirlash. Peyzaj tasviri orqali muallif o'zining asosiy g'oyaviy niyatini ilgari surishi ham mumkin. Fikrlar, fikrlar singdirilgan asarlar gul navlari kabi xilma-xil bo'lgan hozirgi kunda o'quvchiga biror fikr, og'riqli o'ylov, o'ylovli xulosa berish juda mushkul. Va buni ko'pchilik marhamati doirasiga kirita olmaydi.

Isajon Sultonning "Genetik"i o'zida bir qancha ilmiy ma'lumotlarni, yoki ilmiy ta'sirlarni aks ettirgan, kitobxonni o'ylovga chorlaydigan asar. Albatta, asarning birinchi qismi haqida bunday deya olmaymiz. Birinchi qismda qishloq hayoti, uning yosh avlod vaqtini o'g'irlaydigan yumushlari-yu, iste'dodlarga bo'lgan e'tiborsizliklar yoritilgan. Lekin bu tasvirlar qishloq tongini ko'rsatolmagan, yomg'irdan keyingi chang ko'cha hidini his qildirmagan. Asarning ikkinchi qismi bir muncha ilmiy bo'lib so'ngida xulosa birlashib ketgan. Genetikning so'zi ko'lamdor. Bitiktoshlardan keltirilgan parchalar butun asarga "soya solgan", ya'ni muallif so'zlar va jumlar takrorini, sodda gaplarni qo'ymagan bitiktoshlardagi kabi.

Syujetning tarqoqligi kitobxon diqqatini kuchaytirish emas, balki aksiga xizmat qilgan, chamamda.

Ilk bor o'qigan o'quvchiga genlar haqida savolli xulosa berishi mumkin, bu ayrim ilmiy faktlar va hayotiy misollar hisobiga.

Mavzu yangicha. Genlar haqida badiiy talqin. Yagona millat tuyg'usini, ellat qayg'usini, ota-bobolarimizdan bizning qon-qonimizga singib ketgan iste'dod yog'dusini eslatgan. Olg'a yurishi, o'z oldiga ulkan maqsad qo'yishi uchun qaysidir ma'noda turtki bo'lishi kerak edi bu eslatma. O'z-o'zidan o'ylab qolasiz, menda qanday iste'dod borki, haligacha nega u uyg'onmagan!? Axir, sabablar ishonarli. Asar bergan tugal fikr ham shu.

Romanda berilgan peyzajlarga to'xtalib o'tsak, "Qishloq. Yoz. Jazirama" –mana shu uchta so'z orqali tabiat tasviri maromida berilgan. Shu so'zlar orqali qishloq ko'chalari, qishloqning harorati seziladi. Agar ushbu jumalarni qish faslida o'qisangiz birdan tanangizga qandaydir issiqlik yuguradi.

Yana bir o'ringa e'tibor qaratsak, Olislardan keladigan qudratli shamol esa tevarakni kulrangga o'zgartirib yuboradi. Balki, chang ko'targani uchun samo kul tusiga kirar? Avvaliga ko'klarda yeladi, keyin pastga tushganida benihoya ko'p tovushlar hosil qiladi. Devor boshidagi guvalaklar bo'g'iq guvillaydi. Bo'g'otlardan ham shunaqa sas chiqadi. Darvoza yoriqlaridan kirib hushtak chaladi. Hovlida valishga ilib qo'yilgan tolsavat cho'plari shirillaydi. Ushbu parchada shamolga juda chiroyli ta'rif berilgan. Shamol bo'lgan vaqtdagi chang-to'zon tevarak-atrofni kulranga o'zgartirib yubordi –deya ta'rif beriladi. Shundan so'ng shamolning harakati pasayib allaqanday tovushlar hosil qilishiga to'xtalib o'tgan.

Shamol ko'pincha yomg'ir bulutlarini surib keladi. Bulutlar ham turli-tuman. Oralarida chaqmoqlari bilan keladigani bor, u shiddatli jala quyadi. Tomchilari kichikroq bo'lsa, hammayoq shovullaydi. Kattaroq bo'lsa, ko'lmaklarda pufakchalar hosil qiladi. Bo'tana suvlar xaslarni aralashtirib oqizadi, ba'zan yalpiz yaproqlarini uzib yuboradi, ular ham

xaslarga qo'shilib oqadi. Bu parcha orqali siz beixtiyor yomg'ir yog'ayotgandagi holatga tushasiz. Shamolning bulutlarni quvib kelishi bamisoli qo'ychivonning qo'ylarni haydab ketishiga o'xshaydi. Ularning ichida beboshlari ham bo'ladi. Shu o'rinda yozuvchi yomg'ir tomchilarining kattaligiga qarab ularning tasvirini berib o'tgan.

Ummonlar uzra shovullab quyadigan jalalar ham bo'larmish. Balki dunyoning boshqa joylariga borsangiz, yomg'irlari begona tuyular? Sababi: taftiyu hidi, tovushlari o'zga. Yozuvchi bu o'rinda yomg'irning yomg'irdan farqlari berilgan. Haqiqatan ham, har yerning o'zining yomg'iri bor.

Bizda esa mol-qo'y isi, kimningdir bolasini chaqirgan ovozi, chechak aralash o'tloq hidlari aro yoqqan yomg'ir turfa tovushlar bilan birga, islarni ham hosil qiladi. Bu o'rinda esa beixtiyor bolalik davrlaringiz o'tgan qishlog'ingizni yodga olasiz.

Portret. Badiiy adabiyot — personaj tashqi qiyofasining tavsifi, tasviri; badiiy obraz yaratish vositalaridan biri harakteri asar janriga hamda yozuvchining ijodiy metodi va individual uslubi xususiyatlariga bog'lik bo'ladi. Odatda, portret personaj xarakterining yozuvchi eng muhim deb hisoblagan jihatlarini ochib beradi. portret adabiyotda qadimdan mavjud. Tasvir vositasi sifatida o'zgarib takomillashgan. Xalq og'zaki ijodida inson individlashgan shaxs sifatida tasvirlanmaganligi uchun uning portreti ham ko'pincha mavhum, umumiy xarakterga ega. Folklorda portret mifologik, fantastik yoki an'anaviy tarzda yaratiladi. Shuning uchun aniq ijtimoiy, tarixiy, milliy va individual belgilardan mahrum bo'ladi. Masalan, „Alpomish“ dostonida devlar porterti mubolag'a bilan berilgan: To'qson qarich edi uning hassasi, Sarhovuzdan katta edi kosasi. 19-asr da portretning ichki yoki psixologik (ruhiy) portret deb atalgan turi tarqalib, unda personajning harakteri — belgilari va ruhiy kechinmalari majmui ochib beriladi (Abdulla Qah-xrr, Odil Yoqubov). Adabiy portret — atoqli shaxs, ya'ni yozuvchi, rassom, jamoat arbobining hayoti va ijodi haqidagi ocherk alohida janr hisoblanadi.

Genetik romanidagi portretlarga to'xtalsak, Sofiya xolam. Sofiya xolam — esini tanib-tanimasdan turmushga chiqqan qishloq ayoli edi. Danakdayligidan onasining yoniga kirib mitti mushtchalari bilan xamir qorgan, hovli supurgan, tomorqada o't yulgan, sigir-qo'ylarga qaragan, qishning sovuqlarida o'tin ko'tarib sandalga olov qalagan... shu mehnatlar aro bir kuni kelin bo'lishni, keng-mo'l, issiq uyda bolalarini katta qilishni orzulagan bo'lsa ajabmas.

Men esimni taniganimda esa kap-katta xotinga aylangan, birinchi turmushi buzilib, eri qiz tuqqani uchun haydab yuborgach, oradan qanchadir vaqt o'tib, yoshi ancha katta boshqa bir odamga turmushga chiqqan edi. Turmushga chiqqach, uyimizga kelishlari ham sersilib qoldi. Avvallari ko'p kelardi. „To'lpoq, vazmin bola eding, daladan qaytishda seni qo'msab ulovdan tushib qolib, shuncha yo'lga piyoda kelar, ko'tarib bag'rimga bosganimdan keyingina shom qorong'isida uyimga ketardim“ degan edi bir paytlar. Bu gaplarning ma'nosiga o'shanda aqlim yetsa qaniydi?

Uning ma'nosi – shom qorong'isida, charchagan bo'lishiga qaramasdan ancha yo'l bosib, bir-ikki yoshga to'lib to'lmagan jiyanini ko'rishga kelgan xolaning iddaosi emas, balki "Seni judayam yaxshi ko'rardim" degan iqror ekanini men nodon, keyinroq anglab yetdim.

Ushbu parcha orqali yozuvchi bosh qahramonning xolasi, Sofiya xola, hayotiga oid chizmalarni berib o'tgan. Shu portret orqali Sofiya xolaning hayoti va ichki dunyosi haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Ubay aka

Ubay aka bizning qo'shnimiz, baquvvat, yelkalari keng, ovozi qattiq kishi edi. Asli ismi Ubayd bo'lsa bordir, xalq uni o'ziga moslab "Ubay" deb olgan, gohida "Ubaydin" deb ham chaqirishardi. Bu parchada bosh qahramonning qo'shnisi bo'lgan Ubay akaning adabiy portreti berilgan. Uning tashqi ko'rinishi haqida ma'lumot berilgan.

Ubay akaning xotini, bolalari ham boriydi. Xolis aya baland bo'yli, kelishgan ayol bo'lib, Ubay akaning zug'um va tazyiqlariga lom-mim demay bardosh beradigan va o'sha zug'umlar aro bolalarini tishida tishlab katta qilayotgan bir xotin edi. Bu o'rinda Ubay akaning oilaviy axvoliga to'xtalib o'tgan. Shu bilan birgalikda, Ubay akaning turmush o'rtog'i, Xolis ayaning hayoti va tashqi ko'rinishi haqida fikr yuritgan

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Baxtiyor Nazarov. "Irsiyat muammolarining badiiy talqini " Isajon Sulton nasri badiiyati (Ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar) – T:2017
2. D.H. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari: Toshkent, "Noshir" 2020
3. Isajon Sulton nasri badiiyati (Ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar). Toshkent, "Turon zamin ziyo", 2017
4. Davidov Y. J. KO 'P MA'NOLILIK HODISASINING YUZAGA KELISH YO'LLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 500-503.